

**Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash
to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.12.2025-yildagi
819-son**

Nizomga ko'ra, ish beruvchi tashkilotda mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini joriy etishi hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etishi shart.

Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish quyidagilarni o'z ichiga oladi, jumladan:

kirish yo'l-yo'rig'i va ish joyidagi yo'l-yo'riqlarni o'tkazish;

ish joyidagi stajirovka va bilimlarni tekshirish;

xodimlarni baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishga o'qitish.

Ish beruvchi har yili 20-yanvargacha YAMMT IDAKga quyidagi ma'lumotlar kiritilishini ta'minlaydi:

mehnat sharoiti to'g'risidagi ma'lumotlar;

zararli va xavfli ishlab chiqarish omilining mavjudligi bilan tavsiflanadigan mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun imtiyoz va kompensatsiyalar summasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

baxtsiz hodisalardan jabrlangan va kasb bilan bog'liq kasallik 1-marotaba aniqlangan shaxslar soni to'g'risidagi ma'lumotlar.

Tashkilotlarda ma'muriy-jamoatchilik nazorati tashkil etilishi kerak.

Ma'muriy-jamoatchilik nazorati quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-bosqich – bo'linma va bo'limlarning (sex) uchastkasi, smena, brigadada;

2-bosqich – bo'linma, bo'lim, ishlab chiqarish yoki tashkilot uchastkasida;

3-bosqich – tashkilotda umumiy.